

SOLNOMALAR VA DINIY-TASAVVUFIIY MANBALAR –SHAXS SHAKLLANISHINING MA’NAVIY MEZONI SIFATIDA

M.A.Kalandarova

(UrDU mustaqil tadqiqotchisi)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7353573>

Annotasiya: Ushbu maqolada solnomalarda keltirilgan ta’lim-tarbiyaviy qarashlarning diniy-tasavvufiy manbalarga bog’liqligi aks ettirilgan.

Tayanch tushunchalar: ta’lim, tarbiya, tarixiy asarlar, adabiyot, ijtimoiy-ma’naviy qarashlar, diniy qarashlar, tasavvuf.

Bugungi kun yoshlarini tarbiyalashda, ularda tarixiy tafakkurni rivojlantirishda buyuk ajdodlarimiz merosi va shu jumladan tarixiy asarlarimizning o’rni beqiyosdir. Solnomalardagi ta’lim-tarbiyaviy masalalar ildizi, ularning talqinini diniy-tasavvufiy manbalar talqinisiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Biz ijtimoiy fanlarning turli sohalarida diniy-tasavvufiy degan ta’rifdan keng foydalansak ham, aslida “tasavvuf shariatdan tashqaridagi, undan yuqoriroq turuvchi bir yo’l emas. Tasavvuf – shar’iy ahkamlarni sevib, ichki huzur bilan ado etmoqlikdir. Tasavvuf – shariat sohibini – Robbul olamiynni sevmok va Unga mutlaqo taslim bo’lmoqdir. Ammo bu sevgi vujudga bog’liq sevgi emas¹”.

Darhaqiqat, solnomalardagi ta’lim-tarbiyaviy qarashlar diniy-tasavvufiy qarashlarni o’rganar ekanmiz, ular omuxtaligi berilgan o’rinlardan ayrim misollar keltiramiz. “Firdasu-l-iqbol” asarida Shermuhammad Munis insoniyat ibtidosidagi xato va shu natijasiga abadiy farog’atdan mosuvo bo’lishiga ham aynan hasad sabab bo’lganini talqin qiladi: “Va shaytonkim, Odam jihatidin mal’uni abadiy va mardudi dargohi samadiy bo’lub erdi, bu xusumatdin noirai hasad nopok botinida shu’la urub, tovsdinkim, xozini jannat erdi, ig’vo qildikim, behishtga yo’l bergay. Ul imtino’ qilib, yilon ixtilotig’a dalolat qildi”².

Ushbu masalaga shar’iy bilimlarga oid asarlarda juda katta e’tibor qaratilgan. Jumladan, Muhammad Chalabiy qalamiga mansub “Muhammadiya” asarida bu mavzuda to’rtta bob haqida bahs borishi yoziladi. Birinchi hasadning ta’rifi bayonida: hasad kasalligi nafsning keng tarqalgan kasalligi va insoniyat muhtalo bo’lgan nafs kasalliklarining eng ko’p uchraydiganidir. Bu kasallik bilan ko’p kishilar xasta bo’lganlar, ammo undan xalos bo’lganlar kamdir. Hadisi sharifda kelganki, ثلاث لا ينجو منهن أحد الظن و الطير و الحسد

Qit’a:

Xoja xalqi demishki,

¹ Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тасаввуф ҳақида тасаввур. – Тошкент: Hilol-nashr. – Б. 284.

² Шермуҳаммад Мунис, Муҳаммадризо Огаҳий. Фирдавс ул-икбол (Бахтлар боғи). Нашрга тайёрловчилар Н.Жумаҳўжа, С.Рўзимбоев, А.Аҳмедов. – Тошкент: O’qituvchi, 2010. – Б.

Uch xislat bo'lmis rohi najot andan ahad

Su'i zonn yana tatayyur ya'ni yomon fol qilmak

Uchinchisi hasad

Hadisi sharif: دبر إليكم داء الأمم قبلكم الحسد و البغض

Sizdan oldin o'tgan ummatlarda bo'lgan dard sizga ham sirlicha o'tkazildiki, ul bug'z va hasaddir. Bu yomon xulqning sohibidan dunyosida zarar va turmushida talx bo'lishi ma'lum va mashhur bo'lgani uchun bu kasallik va uning iloji haqida ziyoda tahrir va ko'p qalam tebratildi.

Hasad bir kimsaga diniy yo dunyoviy ne'matga yetishmasligini istamakdir yoxud yetishgandan so'ng diniy ne'matning zavol topishini xohlash yoxud oxiratiga zarar bermaydigan dunyoviy ne'matining zavol topishini istashdir va ko'ngliga tushgan bu istagida muhabbati bo'lib, uni inkor etmaslikdir. Ammo agar qalbga hasad o'z tabiatidan kelib chiqib, beixtiyor tushsa va qalbida uni inkor qilib qabul qilmasa, bunday hasad inson qalbidan o'rin ololmaydi. Ammo agar qalbidan bu hasadni inkor qilolmasa, yoki o'z ixtiyori ila yuzaga kelsa, va shu hasad taqozosi bilan amal qilib ba'zi a'zolari uning asarini sodir qilsa, hasad haromdir. Biroq, hasad taqozosi ila amal qilmay, faqat hasad qallda bo'lib, harakat yo so'z ila asari ko'rinmasa, uning haromligida ulamolar ixtilof qilishgandir. Imom G'azzoliy haromdir degan, sohibi "Tariqa" va Shayx Akmal va Muniri marhum bu holatda harom emas deyдилar va dalillari hadisi sharif: و سأحدثكم بالمرج عن ذلك إذا ظننت قلا تحقق و إذا تطيرت فامض و إذا حسدت فلا تنع ma'nosi, sizga su'i zonn (yomon gumon), tatayyur (yomon fol) va hasaddan najot topadigan xabarni beray: su'i zonn (yomon gumon) etganingizda yuzaga chiqarmang, yomon fol qilganingizda unga suyanmay o'ting, hasad qilganingizda tajovuz qilmang, ya'ni harakat va so'z ila zohir qilmang.

Boshqa hadis ham bunga dalil إن الله تعالى تجاوز لأمتي عما حدثت به أنفسها ما لم يتكلم أو لم يعمل ma'nosi, modomiki so'zlamasalar, yo aning bilan amal qilmas ekan, Alloh taolo mening ummatimning ko'ngillaridan sodir bo'lgan narsalardan kechdi, bu yerda so'zlamaslikdan murod hasad uzra bo'lgan so'zlardir, g'iybat, yomonlash, so'kish, yomon gumon qilish kabi, amaldan murod yana hasad taqozosi ila bo'lgan amaldir. Endi bir odam boshqasiga hasad qilsa-yu, ammo asarlaridan bir asarini harakat yoki so'z ila izhor qilmasa, ko'ngilda bo'lgan hasad harom bo'lmaydi. Ammo kufr va bid'at e'tiqodi bir insonning qalbiga tushsa, agar ularning asarlaridan bir asar tilda yo badanda sodir bo'lmisada haromdir. Farqi shuki, kufr va bid'at ikkalasi zoti ila haromdir. Hasad va yomon gumon zoti ila harom bo'lmisadan, haromga sabab bo'lganidandir. Chunki, insonning qalbida bo'lib, tashqariga chiqmaguncha avf qilinadi, xususan, ummati Muhammad eng afzal ummat bo'lgani uchun Habibiga ikrom qilinib kechirilgandir.

Ammo ba'zi ma'siyat qat'iy niyat qilinganida avf qilinmaganligining sababi uning asari ko'pincha a'zodan sodir bo'ladi. Komil inson shuki, qalbini fasod fikr qilmasdan muhofaza qilib, uni solih niyat va maqtalغان sifatlar ila ziynatlaydi. Jumladan, riyo qalbdagi bir ma'no bo'lib, taqozosi ila zohiriy amalda sodir bo'ladi. Masalan, ba'zi kimsalar shubhalardan saqlanadi, chunki xalq uning parhezkor ekanligini ko'radi, shunga o'xshash qalbiy zikr toat bo'lib, asari tashqariga chiqadi, uning alomati esa tafakkurdir, bas buning kabi asarlardan riyo ayrilmagani uchun harom bo'lgandir, yo'qsa, kufr kabi o'z zoti ila harom emasdir. Kibr, ujub, bid'at esa kufr kabi haromdir, ya'ni so'z va fe'l ila ularning asari zohir bo'lmasada, haromdir. Hasadning taqozosi ila a'zodan bir narsa sodir bo'lmaguncha harom bo'lmas, ammo agar ul ne'mat sohibidan ne'matning zavolini istamay, faqat o'zi uchun ham o'shandoq ne'mat berilishini murod qilsa, harom emasdir. Bunga havas derlar. Balki bunday talab diniy ne'matga bo'lsa, qilishlik yaxshidir. Masalan bir odamda ilmni yoki ibodatni ko'rib, Alloh taolo menga ham ul ilm va ibodatdan bersa yo tavfiq qilsa edi deydi. Dunyo ishlaridan bo'lib, muboh qismdan bo'lsa, talabi mubohdir, agar harom qismdan bo'lsa, haromdir.

Tasavvuf tarixidan yaxshi ma'lumki, tariqat pirlari avvalo o'zlari Alloh Taoloning amrlariga qat'iy rioya qilib, o'z muridlariga ham shar'iy hukmlarni, farzu vojiblarning qoimligini targ'ib qilishgan. Bandaning Alloh Taologa muqarrabligining alomati avvalo zimmasidagi farzlar adosi bo'lsa, keyingisi Muxammad sollallohu alayhi vasallam sunnatlariga tobelikdir. Bu ikkalasidan tashqarida yo'l ham, natija ham yo'q. Alloh Taolo Oli Imron surasining 31-32 oyatlarida "Sen (Muxammad sollallohu alayhi vasallam): Agar Allohga muhabbat qilsangiz, bas, menga ergashing. Alloh sizga muhabbat qiladi va gunohlaringizni mag'firat qiladi" deb ayt. Allohga va rasuliga itoat qiling..." deb marhamat qilgan. Oyati karimadan ma'lum bo'ladiki, Alloh Taoloning muhabbatiga Ungagina itoat etish va Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga ergashish orqali sazovor bo'linar ekan. Qur'on va sunnat ustiga bino qilingan "Naqshbandiya" tariqati asoschisi hazrat Bahouddin Naqshband ham "Biz Allohning lutfiga bog'langanmiz. Bizni lutf eshigidan kirgizdilar. Vazifamiz-farz, vojib va sunnati muakkadalarini ado etish"-deganlar. Shu bilan birga ular kishida ixlos va muhabbatni ziyoda qiladigan nafl ibodatlar va zikr saboqlarining ham ta'limini berishgan. Zero hadisi qudsiyda Alloh Taolo "Biror bir bandani Menga farz amallarichalik yaqinlashtiradigan amal yo'q. Mo'min qulim nafila ibodatlar bilan Menga muttasil yaqinlashib kelgay, nihoyat, Menga taqarrub eta-eta (yaqinlasha-yaqinlasha) shu darajaga yetgayki, Men uni sevgayman. Bir karra uni sevdimmi, endi Men u qulimning eshitadigan qulog'i, ko'radigan ko'zi bo'lgayman. (Men

bilan eshitib, Men bilan ko'rgay, Men bilan his qilgay). Hadisi qudsiydan ko'rinib turibdiki banda ulug' maqomlar, ma'naviy xazinalarni qo'lga kiritishi uchun farzlar bilan kifoyalanmay sunnat, nafilalarga ham e'tiborsiz bo'lmasdan ularni o'ziga lozim tutishi kerak. Hazrat Bahouddin Naqshbanddan ulug'likni nimadan toptingiz deb so'rashganida "Ushoq terib yeyishdan" degan ekanlar. Ya'ni, nimaiki fazilatli amal bo'lsa barchasini qilishning harakatida bo'ldim, ushoq terib yeyishdek kichkina ishga ham e'tiborsizlik qilmadim,- demoqchilar. Demak suluk-tariqat orqali shariatning barja ahkolari joriy qilinadi, unda talab qilingan farz, vojib, sunnat, mustahab amallar amalda qo'llanilib, manhiyotlarning barchasidan cheklaniladi.

Kishining har bir ishda Robbisining roziligini ko'zlashi, amallarni ixlos, muxabbat bilan bajarishda tasavvufning o'rne beqiyos. Qalb musaffoligi ta'minliydigani, riyo, ujub, xirs, kibr, shahvat, dangasalik va boshqa botiniy xastaliklarni davolaydigani bu-Alloh Taoloning zikri, nafl ibodatlar va yaxshilar suhbatini bo'lib hisoblanadi. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: "Hikmat egalarini suhbatini lozim tutinglar. Alloh o'lik yerni yong'ir bilan tiriltirgani kabi, o'lik qalbni ham ularning so'zi bilan tiriltiradi"-dedilar. Sodiq ul-Masduq sollallohu alayhi vasallamning bu so'larining isbotini Hazrat Bahouddin Naqshband manoqiblarida keltirilgan bir voqea orqali ko'ramiz:

Shayx Amir Husayndan naql qilinishicha, u dedi: "Mening Hazrati Xoja qaddasalohu sirruhul-azizga yetishganimning sababi quyidagicha edi. Men Qasri Orifonda Hazrati Xojaga yaqin joyda yashardim. Yigirma yoshga yetganimda qiladigan ishim yeyishu uxlashdan iborat edi. Qur'onni ham, musulmonlik qoidalarini ham bilmas edim. Hazrati Xoja har kuni masjidga borardilar va uyimning eshigi oldidan o'tardilar. Har gal o'tayotganlarida menga qarar va kulib qo'yardilar. Ko'nglimda nega namoz o'qimaysan degan katta anduh paydo bo'la boshladi. Tunlarning birida shu anduh bilan uyquga ketdim. Hazrati Xojani tushimda ko'rdim. Ularning qo'llarida katta yorug' oyna bo'lib, bu oynani menga berdilar. O'zimni oynada ko'rdim. Uyg'ongan paytimda meni yig'i egallab oldi, har lahza baqirgim kelar, o'zimni zo'rg'a tutib qolardim. Shu holda turganimda Xoja eshikdan kirib keldilar. "Senga nima bo'ldi?" deb so'radilar. Men jim turaverdim. "Qo'linga kim oyna berdi?" dedilar. "Siz" dedim. Ular: "Musulmonlik odoblarini senga men o'rgataman, qanday tarbiya lozim bo'lsa, hammasini qilaman", dedilar. Haqiqatan ham muborak nazarlarining barakatidan ikki olam baxtiga muyassar bo'ldim".

G'aflat botqog'iga botib, Alloh Taologa ibodat qilish saodatidan yiroq bo'lgan bu yigit, tariqat peshvosi, piri komil Bahouddin Naqshband hazratlarining so'zlari,

ruhiy tavajjuhlarini sababli hidoyat topdi va shariat ahkamlari qoimligi yo'liga kirishdi.

Demak xulosa o'rnida aytish mumkinki, tasavvuf orqali kashfu karomatlar, holatu darajotlar emas, balki zimmamizda bo'lgan shariatning zohiriy va botiniy haqlari ado etish yuzaga kelar ekan desak, xato qilmagan bo'lamiz. Keltirilgan misollar bugungi kun yoshlarini tarbiyalashda diniy-tasavvufiy manbalarning o'rnini beqiyosdir. Bu esa o'zlikni anglashga, hamda tarixiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. – Toshkent: Hilol-nashr. – B. 284.
2. Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy. Firdavs ul-iqbol (Baxtlar bog'i).
3. Nashrga tayyorlovchilar N.Jumaxo'ja, S.Ro'zimboyev, A.Ahmedov. – Toshkent: O'qituvchi, 2010. – B.